



ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
МИРЗО УЛУҒБЕК НОМИДАГИ ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ
УНИВЕРСИТЕТИНИНГ ЖИЗЗАХ ФИЛИАЛИ



ФИЛОЛОГИЯ ВА ТИЛЛАРНИ ЎҚИТИШ
МЕТОДИКАСИНИНГ ДОЛЗАРБ
МУАММОЛАРИ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ
Республика миқёсидаги илмий-амалий
конференция материаллари тўплами

2021 йил 21-22 май

ЖИЗЗАХ 2021

ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

**МИРЗО УЛУҒБЕК НОМИДАГИ ЎЗБЕКИСТОН
МИЛЛИЙ УНИВЕРСИТЕТИНИНГ
ЖИЗЗАХ ФИЛИАЛИ**

**ФИЛОЛОГИЯ ВА ТИЛЛАРНИ ЎҚИТИШ
МЕТОДИКАСИНИНГ ДОЛЗАРЪ МУАММОЛАРИ
ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ**

*Республика миқёсидаги илмий-амалий конференция
материаллари тўплами
(2021 йил 21 – 22 май)*

ЖИЗЗАХ-2021

Give conclusion:- When candidates look at the title of the reading they should ask a question to themselves, what they'll know about this? After completing their reading then again ask one another question. Now, what they know and also what is the exact motive of that reading. How many words do they learn? This is the best way to make their reading interesting.

To repeat it again: - IELTS 'reading' is not a difficult task. The bad things about this are just in candidates' minds. They should try to understand the demand of the questions, improve their way of reading, do perfect practices, give proper dedication at last always make a conclusion. Finally, I hope these TIPS will not only prove helpful for all IELTS candidates but anyone who wants to improve their reading skills, at the same time words bank.

Used literature

1. Elizabeth Chelsa "Read better, Remember more", New York, 1997.
2. Phil Biggerton "The Complete Guide to Academic Reading" Published in Vietnam, 2014.
3. <https://www.ieltscareerzone.com>
4. <https://telegra.ph/Dont-use-English-Uzbek-or-English-Russian-Dictionaries-a-lot-03-11->

CHET TILLARNI O'QITISH METODIKASINING DOLZARB MASALALARI

*Baymatov Abduaziz Abdujabbarovich,
Jizzax Davlat Pedagogika Instituti
Chet tillar fakulteti,
Ijtimoiy gumanitar fanlarda chet tili kafedrasi
ingliz tili o'qituvchisi,
Bekmuratova Aziza Alisher qizi
Jizzax davlat pedagogika instituti chet tillar fakulteti
"Ingliz tili va adabiyoti yo'nalishi" 1-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda o'quvchilar duch kelayotgan muammolar haqida, ya'ni ahamiyat qaratilishi lozim bo'lgan dolzarb masalalar haqida yozilgan. O'quvchilarda chet tillarni o'rganishda gapirish, tinglab tushunish, o'qish va yozuv kabi ko'nikmalar bilan bog'liq muammolarni bartaraf qilish, u muammolarga qarshi yechim izlash haqida batafsil ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: antisipatsiya, analiz-sizntez jarayon.

Annotation: *This article is about the problems that students face today, that is, the current issues that need to be addressed. Students are given detailed information on how to solve problems related to speaking, listening, reading and writing skills in foreign language learning, and how to find solutions to those problems.*

Key words: *antiseptic, analysis-synthesis process.*

XXI asr innovatsion texnologiyalar, ilm olish, izlanish, til o'rganish va yangi kashfiyotlar yaratish asri. Hozirda dunyoning har manzilgohidagi istalgan sohada tilga bo'lgan talab mavjud. XXI asrda til har bir sohaga bevosita kirib bordi va muqim o'rnashib oldi. Texnologiyalar, Xalqaro munosabatlar, biznes, ta'lim va boshqa sohalarning faoliyatida til bilish muhim rol o'ynaydi. Til bilish mamlakat rivoji va kelajagi uchun juda katta hissa qo'shadi. Shu sababdan ham mamlakatimizda til o'rganishga qaratilgan e'tibor bugungi kunda dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda. Mamlakatimiz har tomonlama, ya'ni ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalarda sezilarli darajadagi ulkan natijalarga erishishi uchun yoshlarimizga keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Shu bois, ilm olish, chet tillarni o'rganishga bo'lgan e'tibor maktabgacha ta'lim sohasidan boshlab yo'lga qo'yilgan. Endi o'quvchilar bog'cha yoshidanoq chet tillaridan boshlang'ich ma'lumotlarga ega bo'lib, maktabda sinf darajalariga mos ravishda chet tillarini o'rganishadi. Biroq, o'quvchilarning barchasi ham chet tillarni a'lo darajada o'zlashtira olmayptilar. Bu hozirda mavjud bo'lgan dolzarb muammolardan biridir.

Chet tillarni samarali o'qitish maqsadida, tabiiyki, o'qituvchilar turli xil o'qitish metodikalaridan foydalanishadi. O'qitish metodikalari o'qituvchilarga juda katta yordam beradi. Shunga qaramasdan, o'qitish metodikasining dolzarb masalalari ham mavjud. Ayni paytdagi dolzarb masalalardan biri – bu o'quvchilarning o'qish, yozish, gapirish va tinglab tushunish ko'nikmalarining pastligidir. O'quvchilarda 4 ta til ko'nikmalari bo'yicha bir qator muammolarni bartaraf etish maqsadida turli xil chora – tadbirlar o'tkazilmoqda va yangi – yangi qaror va loyihalar e'lon qilinmoqda. Xususan, Prezidentimiz ham chet tillarini o'qitishni takomillashtirishga bag'ishlangan nutqida Vazirlar Mahkamasi huzurida Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish agentligi tashkil etilishini ma'lum qildi. Agentlik dunyoda samarali natija bergan o'qitish metodikalari, dastur va darsliklarini bog'cha, maktab, litsey, oliygoh va o'quv markazlarida joriy etib, xorijiy tillarni mukammal o'zlashtirishga ko'maklashadi. Bu sa'y – harakatlarning bari yoshlarning chet tillarni samarali o'rganishlari va ulardagi til ko'nikmalariga

doir muammolarini hal qilish, ularning o'qish, yozish, gapirish va tinglab tushunish kabi layoqatlarini, bilimlarini oshirishga qaratilgan, albatta.

Yuqorida aytib o'tilgan o'qish, yozish, gapirish va tinglab tushunish ko'nikmalari bilan bog'liq muammolarni bartaraf qilish uchun o'qituvchi til ko'nikmalarining har biriga alohida vaqt ajratib o'quvchilar bilan ularning mana shu 4 ta tur ko'nikmalari bo'yicha shug'ullanishi lozim. Avvalo, o'quvchilarning gapirish yoki yozish va h.k. bo'yicha qiyinchiliklari darajasini aniqlab olish lozim. Bu orqali ular aynan qayerda muammoga duch kelayotganliklarini va xatolarini bilib olish va shu xatolar ustida ishlab, xatolarni to'g'irlash orqali yuqori natijalarga erishish mumkin. Maktab sharoitida o'quvchilarning tinglab tushunishi sohasidagi qiyinchiliklar quyidagilardan iborat:

- Tilga oid shakliy qiyinchiliklar
- Mazmunga doir qiyinchiliklar
- Nutqiy idrok qilishning shart – sharoitidagi qiyinchiliklar
- Nutq shakliga oid qiyinchiliklar
- Tilshunoslik nuqtayi nazaridan sodir bo'ladigan qiyinchiliklar
- Audiomatn tuzilishiga oid qiyinchiliklar.

O'quvchi tinglab tushunishda duch keladigan qiyinchiliklarni e'tirof etishdan maqsad ularning oldini olish choralarini ko'rishdir. Qiyinchiliklar mehnat va vaqt talab qiladi, maxsus mashqlarni bajarish zaruriyatini tug'diradi. Qiyinchiliklarni o'z vaqtida bartaraf qilish yo'li bilan ta'lim jarayonini jadallashtirish va o'qitishning eng maqbul metodikasini ishlab chiqishga muvaffaq bo'linadi. Jumaladan, tinglab tushunishni o'rgatishga maxsus vaqt ajratiladi va muayyan mashqlar bag'ishlanadi.

Chet tilini o'rgatishning birinchi soatidan boshlab, to o'quvchi maktabni tugatgunga qadar tinglab tushunishni o'rgatishga e'tibor qaratiladi. O'quvchilarga tinglash uchun namunaviy bo'lmish muallim nutqi katta ahamiyatga molik. Darsni chet tilda olib borishdek metodik qoidaga rioya qilish zarurdir. Gapirish va o'qish materialini tinglab tushunish yordamida mustahkamlash hamda takrorlash ushbu nutq faoliyati turini ta'lim vositasi maqomiga kiritadi. Nutq faoliyatining to'rtala turidan birortasi dars davomida mashq qilinmasligi mumkin, biroq bu qoida tinglab tushunishga tegishli emas. Xohlagan bir mashg'ulotda gapirish yoki o'qish, yoki yozuv mashq qilinmasligi mumkin. Biroq dars bor ekan, tinglab tushunish bo'ladi.

Chunki o'qituvchi chet tilda gapirish bilan dars boshlaydi, darsni o'tadi va uni yakunlaydi, demak, tinglovchi sifatida o'quvchi gavdalanadi. Nutqni tinglab tushunishni o'rgatishda nimalarga ahamiyat berish lozim? Birinchidan, nimani o'rgatish, ikkinchidan, qanday qilib o'rgatish va nihoyat, tushunganlikni qaysi yo'l bilan aniqlashni bilish talab qilinadi. Bu uchala masala alohida – alohida ko'rib

chiqiladi. Tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirish uchun tinglab tushunishga mo'ljallangan mashqlardan foydalanish ham yaxshi samara beradi. Ularga maxsus mashqlar, ya'ni tayyorlov, nutqiy, tilga oid, psixologik va maxsus bo'lmagan mashqlari kiradi.

O'quvchilarga chet tilda gapirishni o'rgatish oraliq amaliy maqsad sanaladi, ya'ni ta'limning dastlabki bir necha yili davomida ular gapirish va tinglab tushunishni o'rganishadi, o'qish va yozuv o'qitish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Yuqori sinflarda o'qish va tinglab tushunish maqsad maqomini egallaganida, gapirish o'qitish vositasiga aylanadi. Demak, gapirish 3 vazifani o'taydi: aloqa vositasi, o'qitish vositasi va o'qitishning amaliy maqsadi. Har qanday faoliyatni o'rgatish paytida mashq markaziy o'rinni egallaydi. Nutq malakalarini o'zlashtirish deganda, kichik hajmli sodda birliklardan boshlanib, yirik miqyosdagi murakkab matngacha bo'lgan nutq hodisalarini o'z ichiga olgan mashq bajarish jarayonu tushuniladi. Bularning hammasi oqibatda mashqlar majmuyini tashkil etadi. Tayyorlov va nutq mashqlari gapirish ko'nikma va malakasini shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirish vazifalarini o'taydi. Gapirish jarayonida yo'l qo'yiladigan xatolarni nazorat qilish(muallim tomonidan) va o'z – o'zini tekshirishning nutq malakalarini egallashda ahamiyati katta. Nutqiy mashqlarni bajarish chog'ida xatoni to'g'rilab turish ma'qul emas, bu ish fikr bayon etib bo'lingandan so'ng qilinadi. Maktab o'quvchilariga mashqlarning berilish tartibi va miqdori muayyan sinf o'quvchilarining chet tilda hosil qilingan ko'nikma va malakalari saviyasiga qarab farqlanadi.

Chet til o'qitish metodikasi manfaatini ko'zlab, birinchidan, harfiy matndagi kod almashinishi (harflarning tovushga o'tishi), ikkinchidan, odam bajaradigan tilga oid amal va, uchinchidan, muloqot natijasini yetkazish tarzidagi uch tomonlama jarayon o'qish deyiladi. Hozirgi davrda o'qish xuddi ovqatlanish, uyqu, ish singari faoliyat, ya'ni ma'naviy ozuqa olish vositasi bo'lib qoldi. Ilmiy-texnika va boshqa axborotlar, asosan, o'qish orqali o'zlashtiriladi. O'quvchi chet tildagi darslik matnlari, o'qish kitobi, matbuot xabarlarini o'qib, tili o'rganilayotgan mamlakat hayoti, madaniyati, tarixi, adabiyoti kabilar bilan yaqindan tanishadi. Chet tilda o'qish muammolari jahon metodikasida, xususan, rus mutaxassislari tomonidan sinchkovlik bilan tadqiq etilgan.

Retseptiv nutq faoliyati hisoblanmish o'qishni o'rgatishdagi ta'limiy vazifalardan biri uning psixofiziologik mexanizmlarini shakllantirishdir. Tinglashga oid fikr-mulohazalar o'qishga ham ma'lum darajada taalluqli, chunki ikkalasi ham retseptiyadir. Shunisi borki, bir xil mexanizm tinglash va o'qishda farqli qo'llanadi, chunki nutq ko'rish yoki eshitish orqali idrok etiladi. Dars jarayonida antisipatsiya (oldindan fahmlash) mexanizmi, taxminiy fahmlash, mantiqiy tushunish va ichki nutqiy eshituv kabi mexanizmlaridan foydalanish

lozim. O‘qish faol kechadigan analiz-sintez jarayonidir. Yangi birikmalardagi ko‘ruv komplekslariga duch kelgan chog‘da idrok etish, solishtirish va tanib olish natijasida axborot olish mumkin bo‘ladi. Bularning barchasi o‘qish malakasini o‘stirishga xizmat qiladigan xatti-harakatlardir. Maktab tajribasida o‘z isbotini topgan og‘zaki nutqning oldin o‘rganilishi mezoniga binoan birinchi yili o‘quvchilar tinglash, gapirish, yozuv o‘qish bilan chet tili o‘rganadilar. Ikkinchi yil og‘zaki nutqdan keyin o‘qish va yozuv keladi. O‘qish texnikasini o‘rgatish ushbu sharoitga moslashtiriladi. Sharoit o‘zgarsa, o‘qish texnikasini o‘rgatishda ham o‘zgacha usullar paydo bo‘ladi. O‘qish texnikasini o‘rgatishda turli metodlardan foydalaniladi. Ularning nomlari metodik adabiyotlarda g‘oyat xilma-xildir. O‘qituvchilarda deyarli munozara uyg‘otmaydigan, aksariyat ko‘pchilik ma‘qul topadigan “analiz-sintez” va “so‘zni butun holicha o‘qish” metodlari xalqaro miqyosda keng tarqalgan. Ulardan tashqari, “tovush-harf” va “bo‘g‘in” metodlaridan ham foydalanishadi. O‘qituvchilarning ushbu metodlardan foydalanishlari ham o‘qish ko‘nikmasini rivojlantirishga yordam beradi.

AQSH chet tillar o‘qitish metodikasining atoqli namoyandalaridan Garvard universiteti professori Uilga M. Rivers fikricha, savodli bo‘lish – o‘qish va yozuvni bilish, degan ma‘noni anglatadi. Yozuv nutqni o‘rgatishda yozuv materialini, yozuv ta‘lim vositasi ekanligi, yozma ishlar kabi masalalar hal etiladi. O‘quvchilarning o‘zlashtirgan til materialini va og‘zaki nutq mavzulari asosida yozma fikr bayon etishlari amalda tatbiq qilingan. Yuqori sinflar til materialini va o‘qish mavzularini qo‘llab, o‘quvchilar yozma nutq bajarmaydilar. Yozuv til materialini puxta o‘zlashtirish, og‘zaki nutq va o‘qish malakalarini o‘stirish hamda o‘quv materialining o‘zlashtirish darajasini tekshirish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Yozma ishlarni bajarish oqibatida o‘quvchilar chet mamlakatdagi tengdoshlariga xat yoza olish malakasini egallaydilar. O‘qituvchilar yozuvni o‘qitishga bag‘ishlangan metodik manbalarda keltirilgan mashqlardan, ya‘ni ko‘chirish, eshitib yozish, erkin va ijodiy diktant, chinakam yozuv mashqi, o‘yin-mashq, hikoya rejasini tuzish, o‘qigan matnning muxtasar bayoni kabi mashqlarni o‘quvchilarga bajartirishi lozim. Shuningdek, har bir sinfda sharoitga qarab, o‘quvchilar ko‘nikma va malakalarining rivojlanish darajasini hisobga olib, yozuv mashqlarini bajarishning xususiy tartiboti belgilanishi lozim.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, chet tillarni samarali o‘rganishga qaratilgan e‘tibordan, ta‘lim jarayonida yaratilayotgan shart-sharoitlardan unumli foydalanib, o‘quvchi yoshlarda mavjud bo‘lgan bugungi kunning ahamiyat qaratilishi lozim bo‘lgan dolzarb masalalaridan hisoblanmish til ko‘nikmalari bilan bog‘liq muammolarni hal qilish uchun ikkala tomon ham, ya‘ni o‘qituvchi ham o‘quvchi ham birdek shijoat bilan harakat qilishlari lozim. Har bir turga alohida

vaqt ajratish, ma'lum metodlardan foydalanish, xatolar ustida ishlab ularni to'g'irlash yaxshi samara beradi.

Adabiyotlar:

1. "Chet til o'qitish metodikasi" Jamol Jalolov
 2. Bakhriddinova, D. (2017). Oqitish jarayonida "ruhiy kamolot vositasi" dan samarali foydalanish. XXIII Международной научной конференции "Актуальные вызовы современной науки, 26-27
 3. Bakhriddinova, D. (2015). How to subdue difficulties in listening skill. Xorijiy tillarni o'qitishda axborot texnologiyalardan samarali foydalanish. Respublika ilmiy–amaliy konferentsiyasi materiallari to'plami. Samarqand, 18.
 4. Bakhriddinova, D. (2020). EUPHEMISMS ABOUT "GETTING FIRED" IN ENGLISH AND UZBEK. Журнал иностранных языков и лингвистики, 1(1), 30-34.
 5. Baymatov, A., & Bakhriddinova, D. (2020). "EVFEMIZM"–NUTQ VOSITASI SIFATIDA. Архив Научных Публикаций JSPI.
 6. Bakhriddinova Dildora Oktamovna. " The etymological gradual development of euphemisms ". ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. Year:2020, Volume: 10, Issue:10. First page : (578) Last page : (583). Online ISSN: 2249-7137
- a. Article DOI: 10.5958/2249-7137.2020.01169.6

СОВРЕМЕННЫЙ ПОДХОД К ОБУЧЕНИЮ ГОВОРЕНИЮ В РАМКАХ ФОРМИРОВАНИЯ ИНОЯЗЫЧНОЙ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ

Бобокулова Гулрух Шариповна
Бухарский государственный университет
Преподаватель английского языка
по гуманитарным предметам
Тел:93 4764044 e-mail: gulruh84@gmail.uz

Аннотация: Коммуникативное образование обучающихся на уроках иностранного языка и предмет исследования: формирование коммуникативной компетенции на уроках иностранного языка. Цель исследования: обоснование педагогических условий формирования коммуникативной компетенции обучающихся на уроках иностранного языка.